Sherobod	18,8	115,1
Sho'rchi	16,1	117,3

2024-yilning yanvar-sentabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 529,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	<b>1303,4</b>	<b>100,0</b>
Termiz sh.	465,0	35,7
tumanlar:		
Oltinsoy	3,8	0,3
Angor	25,8	1,9
Bandixon	1,9	0,1
Boysun	2,4	0,2
Muzrabot	1,1	0,1
Denov	639,9	49,1
Jarqo'rg'on	65,8	5,0
Qumqo'rg'on	19,4	1,5
Qiziriq	12,7	1,0
Sariosiyo	6,0	0,5
Termiz	21,7	1,7
Uzun	0,9	0,1
Sherobod	7,8	0,6
Sho'rchi	29,2	2,2

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (639,9 mlrd. so'm) va Termiz shahri 465,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-sentabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 303,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,5 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 383,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 57,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 919,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 83,3 %) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdag'i tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanaqidagi yoki to'lanaqanligidan qat'iy nazar qiymati.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 736,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga o'sdi.

### Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 5 983,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 111,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,8 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 320 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 301 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Sho'rchi (31,5 m) , Angor (209,5 %) va Denov (151,3 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>6736,2</b>	<b>108,8</b>
Termiz sh.	993,5	105,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	119,4	108,1
Angor	101,0	102,1
Bandixon	305,3	105,5
Boysun	19,7	109,0
Muzrabot	300,5	170,4
Denov	1421,9	107,7
Jarqo'rg'on	115,5	98,9
Qumqo'rg'on	199,7	70,2
Qiziriq	27,8	93,4
Sariosiyo	96,2	112,2
Termiz	257,5	117,9
Uzun	46,8	51,6
Sherobod	232,8	138,5
Sho'rchi	259,5	125,9

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR



### TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 301 402,1 ming AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 67 238,9 ming AQSH dollariga yoki 28,7 % ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-sentabr, ming AQSH dollar)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: 301 402,1 +28,7 %

(2023-y.: 234 163,2)

Saldo

2024-y.: 91 103,7 (2023-y.: 59 821,2)



#### Eksport

2024-y.: 196 252,9 +33,5 %

(2023-y.: 146 992,2)

#### TSAdagi ulushi, % da



#### Import

2024-y.: 105 149,2 +20,6 %

(2023-y.: 87 171,0)



**Tashqi savdo aylanmasi** – muavyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining middori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi boixona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi boixona hududidan olib chiaish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariiga go'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi 196 252,9 ming AQSH dollariga (33,5 % qa ko'paydi) va import hajmi 105 149,2 ming AQSH dollariga (20,6 % ko'paydi). Hisobot davrida 91 103,7 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-sentabr, ming AQSH dollari)

Rossiya	Pokiston	Turkiya	XXR	Afg'oniston
TSA – 83 335,3	TSA – 47 587,4	TSA – 41 767,5	TSA – 37 032,6	TSA – 27 315,4
Eksport: 80 262,8 Import: 3 072,5	Eksport: 41 355,9 Import: 6 231,5	Eksport: 11 856,2 Import: 29 911,4	Eksport: 16 459,6 Import: 20 573,0	Eksport: 24 775,4 Import: 2 540,0
 27,6 %	 15,8 %	 13,9 %	 12,3 %	 9,1 %
Qozog'iston	Germaniya	Eron	Hindiston	Turkmaniston
TSA – 19 452,1	TSA – 11 945,0	TSA – 4 639,5	TSA – 3 702,4	TSA – 3 210,1
Eksport: 9 555,0 Import: 9 897,1	Eksport: 174,0 Import: 11 770,9	Eksport: 1 472,7 Import: 3 166,9	Eksport: 289,3 Import: 3 413,2	Eksport: 0,2 Import: 3 210,1
 6,5 %	 4,0 %	 1,5 %	 1,2 %	 1,1 %

Surxondaryo viloyati jahoning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (27,6 %), Pokistonda (15,8 %), Turkiyada (13,9 %), XXRda (12,3 %), Afg'onistonda (9,1 %), Qozog'istonda (6,5 %), Germaniyada (4,0 %), Eron (1,5 %), Hindistonda (1,2 %), va Turkmaniston (1,1 %) qayd etilgan.



**SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
(yanvar-sentabr, ming AQSH dollarri)


Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	57 341,6	17 618,6	83 335,3
Eksport	18 960,4	13 093,0	80 262,8
Import	38 381,3	4 525,6	3 072,5
Pokiston	48 387,7	52 219,6	47 587,4
Eksport	27 916,5	39 220,7	41 355,9
Import	20 471,3	12 998,9	6 231,5
Turkiya	18 798,0	13 328,8	41 767,5
Eksport	13 912,1	5 444,8	11 856,2
Import	4 885,9	7 884,0	29 911,4
XXR	65 941,9	53 747,5	37 032,6
Eksport	38 327,8	28 101,5	16 459,6
Import	27 614,1	25 645,9	20 573,0
Afg'oniston	13 600,5	41 533,6	27 315,4
Eksport	13 111,7	40 827,4	24 775,4
Import	488,8	706,2	2 540,0
Qozog'iston	37 622,7	18 089,3	19 452,1
Eksport	28 584,4	5 961,4	9 555,0
Import	9 038,3	12 127,9	9 897,1
Germaniya	2 604,0	2 345,6	11 945,0
Eksport	1 624,2	597,3	174,0
Import	979,8	1 748,3	11 770,9
Eron	4 936,5	2 403,7	4 639,5
Eksport	3 866,7	1 359,9	1 472,7
Import	1 069,8	1 043,8	3 166,9
Hindiston	3 737,8	3 154,3	3 702,4
Eksport	809,3	1 207,3	289,3
Import	2 928,6	1 947,0	3 413,2
Turkmaniston	1 024,2	1 359,0	3 210,1
Eksport	309,8	414,2	0,2
Import	714,4	944,8	3 210,0

Davomi

Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<b>Belarus</b>	<b>1 769,1</b>	<b>1 085,8</b>	<b>2 737,0</b>
 <i>Eksport</i>	1 472,4	773,4	2 658,4
<i>Import</i>	296,7	312,4	78,7
<b>Tojikiston</b>	<b>8 993,4</b>	<b>8 987,7</b>	<b>2 060,0</b>
 <i>Eksport</i>	2 044,5	2 954,3	1 309,1
<i>Import</i>	6 948,9	6 033,4	750,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 135,6</b>	<b>849,7</b>	<b>2 014,9</b>
 <i>Eksport</i>	13,5	0,03	0,5
<i>Import</i>	1 122,1	849,7	2 014,4
<b>Avstriya</b>	<b>580,4</b>	<b>0,03</b>	<b>1 970,1</b>
 <i>Eksport</i>	-	0,03	0,1
<i>Import</i>	580,4	-	1 970,0
<b>Polsha</b>	<b>499,1</b>	<b>1 696,2</b>	<b>1 531,3</b>
 <i>Eksport</i>	413,1	1 327,4	1 083,4
<i>Import</i>	86,0	368,8	447,9
<b>Ekvador</b>	<b>682,1</b>	<b>255,0</b>	<b>1 391,4</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	682,1	255,0	1 391,4
<b>Portugaliya</b>	-	-	<b>754,6</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	754,6
<i>Import</i>	-	-	-
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>8 030,6</b>	<b>730,3</b>	<b>700,0</b>
 <i>Eksport</i>	6 974,8	645,6	209,4
<i>Import</i>	1 055,8	84,7	490,7
<b>Latviya</b>	<b>91,0</b>	<b>109,5</b>	<b>688,7</b>
 <i>Eksport</i>	0,1	109,5	679,8
<i>Import</i>	90,9	0,05	9,0
<b>Estoniya</b>	<b>238,9</b>	<b>223,2</b>	<b>658,9</b>
 <i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
<i>Import</i>	238,9	223,1	658,8




**SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA  
TASHQI SAVDO AYLANMASI**  
(2024-yil yanvar-sentabr, ming AQSH doll.)\*



Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani **13,3 %** ulush bilan **40 049,7** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Boysun tumanida **3,1 %** ulush bilan **9 322,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

**SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA  
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIIY  
DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-sentabr, ming AQSH dollarri, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 37,3 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,1 % ga ko'paydi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,1 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 62,7 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, 112 422,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 94 922,7 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 17 499,8 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




## SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI

(2024-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (74,1 %), Qozog'iston (17,3 %), Turkmaniston (2,9 %), Belarus (2,4 %) hamda Tojikiston (1,8 %) davlatlari bilan qayd etildi.

**SURXONDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI**  
(yanvar-sentabr, ming AQSH dollarri)



Surxondaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 106 263,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 92 724,2 ming AQSH dollarri, import hajmi esa 13 539,0 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'tasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordiorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni 242 taga yetdi va ular tomonidan 196 252,9 ming AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 33,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-sentabr, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinnlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinnlarda – XSST**) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahvilii maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

*(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollarri		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	146 992,2	196 252,9	90,8	133,5	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar	72 233,8	130 902,0	91,6	181,2	49,1	66,7
Ichimliklar va tamaki	844,4	47,8	7 684,6	5,7	0,6	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4 865,3	7 049,4	69,1	144,9	3,3	3,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	230,2	523,4	98,1	227,4	0,2	0,3
Sanoat tovarlari	54 185,8	43 587,5	79,2	80,4	36,9	22,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	214,8	1 977,4	204,5	920,4	0,1	1,0
Turli xil tayyor buyumlar	9 796,5	7 705,3	295,4	78,7	6,7	4,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	253,8	-	-	-	0,1
Xizmatlar	4 037,3	4 206,3	144,8	104,2	2,7	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	584,0	-	68,6	-	0,4	-

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,9 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar (66,7 %), sanoat tovarlari (22,2 %), turli xil tayyor buyumlar (4,0 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (3,6 %) va xizmatlar (2,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA  
EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-sentabr)**

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollarri	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	119 225,2	2,2 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	11 515,6	66,9
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	82,0	101,6
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar	59,5	2,8 m.
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	10,3	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	9,5	120,8
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	5 190,8	6,2 m..
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	1 344,8	57,1
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	397,0	141,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	114,5	8,2
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk)	2,4	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Bo'yoqlar, taninlar va bo'yoqlar	484,2	2,2 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	29,8	6,5 m.
Birlamchi shaklda bo'limgan plastmassalar	6,4	402,4 m.
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	1,4	100,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,3	3,3 m.
Kimyoviy vositalar	0,2	7,1
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashina va uskunalar	1 475,1	7,2 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	200,2	-
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	165,5	48,7 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari)	131,0	23,1 m.
Kantselyariya mashinalari va avtomatik ma'lumotlarni qayta ishslash uskunalar	3,2	-
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2,5	-

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollarri	Davomi 2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	41 071,1	78,2
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	2 237,6	180,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	186,0	48,4
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	61,7	88,4
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	24,6	3,5 m.
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	6,6	68,3 m.
<b>Xizmatlar</b>		
Moliyaviy xizmatlar	1 542,5	121,1
Transport xizmatlari	940,6	84,5
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	779,1	123,0
Boshqa biznes xizmatlari	488,0	131,8
Sayohat	456,1	70,5
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	7271,5	78,6
Boshqa turdagи maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	335,0	83,7
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	33,4	117,5
Har xil tayyor mahsulotlar	27,5	145,3 m.
Poyabzal	19,6	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lса, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariiga 94 922,7 ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 48,4 % tashkil etdi.



2024-yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Afg'oniston, XXR, Turkiya, Qozog'iston va Belarus kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 95,2 % ni tashkil etdi.

#### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR

#### DAVLATLARNING ULUSHI

(2024-yil yanvar-sentabr, % da)






**SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI  
VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)**

Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	13 093,0	80 262,8	69,1	6,1 m.	4	1
Pokiston	39 220,7	41 355,9	140,5	105,4	2	2
Afg'oniston	40 827,4	24 775,4	3,1 m.	60,7	1	3
XXR	28 101,5	16 459,6	73,3	58,6	3	4
Turkiya	5 444,8	11 856,2	39,1	2,2 m.	6	5
Qozog'iston	5 961,4	9 555,0	20,9	160,3	5	6
Belarus	773,4	2 658,4	52,5	3,4 m.	12	7
Eron	1 359,9	1 472,7	35,2	108,3	8	8
Tojikiston	2 954,3	1 309,1	144,5	44,3	7	9
Polsha	1 327,4	1 083,4	3,2 m.	81,6	9	10
Portugaliya	-	754,6	-	-	-	11
Latviya	109,5	679,8	2045,8 m.	6,2 m.	24	12
Ozarbayjon	1 088,6	529,8	75,6	48,7	11	13
Bangladesh	-	464,7	-	-	-	14
Ukraina	349,6	311,2	163,0	89,0	19	15
Irok	398,8	300,1	111,1	75,3	18	16
Hindiston	1 207,3	289,3	149,2	24,0	10	17
Qirg'iz Resp-si	645,6	209,4	9,3	32,4	15	18
Germaniya	597,3	174,0	36,8	29,1	16	19
Bolgariya	18,7	172,1	-	9,2 m.	26	20



**SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR  
KESIMIDA EKSPORTI**  
(2024-yil yanvar-sentabr, ming AQSH doll.)\*



Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Denov tumani **9,7 %** bilan **19 074,5** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun **3,6 %** bilan **7 119,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-sentabr oylarida 242 093,4 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,7 m. yoki 177 271,5 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (55,7 %), Pokiston (28,5 %), Qozog'iston (6,9 %), Afg'oniston (5,7 %) hamda Belarus (1,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 129 326,5 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 88,2 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 65,9 % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-sentabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<b>Uzum quritilgan</b> 249,6 ming AQSH dollari 148,6 tonna 95,1 %	<b>Karam</b> 6 901,2 ming AQSH dollari 31 609,7 tonna 11,5 m.	<b>Piyoz</b> 23 001,8 ming AQSH dollari 101 984,6 tonna 8,7 m.	<b>Dukkakli donli ekinlar</b> 20 826,1 ming AQSH dollari 5 785,6 tonna 32,5 %
<b>Uzum</b> 15 332,8 ming AQSH dollari 19 188,9 tonna 26,5 m.	<b>Yer yong'oq</b> 4 967,3 ming AQSH dollari 1 809,9 tonna 9,1 m.	<b>Bodring</b> 366,8 ming AQSH dollari 301,2 tonna 9,2 %	<b>Meva va rezavorlar</b> 25 979,8 ming AQSH dollari 29 458,1 tonna 3,3 %
<b>Sabzavotlar</b> 19 313,9 ming AQSH dollari 25 585,9 tonna 109,8 %	<b>Pomidor</b> 7 838,4 ming AQSH dollari 10 761,2 tonna 7,6 m.	<b>Qovun va tarvuz</b> 2 792,0 ming AQSH dollari 13 806,1 tonna 4,2 m.	



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING  
EKSPORT GEOGRAFIYASI**  
*(2024-yil yanvar-sentabr)*

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollarari	Ulushi, % da *
Rossiya	149 725,4	71 988,0	55,7
Pokiston	42 128,4	36 833,7	28,5
Qozog'iston	31 407,4	8 979,3	6,9
Afg'oniston	13 231,3	7 345,3	5,7
Belarus	1 928,6	1 300,3	1,0
Latviya	1 281,9	677,3	0,5
Ozarbayjon	295,9	439,2	0,3
Ukraina	437,9	308,6	0,2
Eron	191,9	230,8	0,2
Polsha	174,6	223,0	0,2
Germaniya	76,7	173,7	0,1
Tojikiston	203,5	134,8	0,1
Turkiya	41,7	122,6	0,1
Irok	330,8	120,3	0,1
Malayziya	12,6	93,9	0,1
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	19,0	83,1	0,1
Boshqa davlatlar	605,8	272,8	0,2

\* qiyamat ifodasidan

 2024-yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiyamat jihatidan eng katta Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 55,7 % ).

**DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI  
EKSPORTI DINAMIKASI**  
(yanvar-sentabr, ming AQSH dollar)

		2023-yil	2024-yil	O'sish sur'ati, % da
	XXR	21 612,8	16 459,4	76,2
	Turkiya	4 702,7	10 431,9	2,2 m.
	Afg'oniston	27 769,7	7 965,4	28,7
	Rossiya	4 462,7	5 084,1	113,9
	Pokiston	961,9	4 398,0	4,6 m.
	Eron	53,1	1 241,9	23,4 m.
	Polsha	872,2	860,3	98,6
	Portugaliya	-	754,6	-
	Bangladesh	-	464,7	-
	Bolgariya	-	172,1	-
	Boshqa davlatlar	2 903,3	509,4	17,5

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi XXR (34,0 % – 16 459,4 ming AQSH dollar), Turkiya (21,6 % – 10 431,9 ming AQSH dollar), Afg'oniston (16,5 % – 7 965,4 ming AQSH dollar), Rossiya Federatsiyasi (10,5 % – 5 084,1 ming AQSH dollar) va Pokiston (9,1 % – 4 398,0 ming AQSH dollar) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'miga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024-yil yanvar-sentabr oyi yakuni bo'yicha 48 341,8 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiyligi eksportning 24,6 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 23,6 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (76,0 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (15,0 %), gazlamalar (6,3 %), va gilamlar (0,3 %), asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning 19 ta davlatiga eksport qilindi.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI


(yanvar-sentabr, ming AQSH dollari)



Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalaridan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdarligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnni topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-sentabr, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 4 206,3 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,1 % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (36,7 %), transport (22,4 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (18,5 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (11,6 %) va safarlar (turizm) (10,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 105 149,2 ming AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 120,6 % tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (62,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,0 %), hamda sanoat tovarlari (4,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (4,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18 009,9 ming AQSH dollariga ko'paydi va 104 664,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 484,3 ming AQSH dollariga yetdi.



**SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA  
IMPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)**

XSST tarkibi	Ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiylajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>87 171,0</b>	<b>105 149,2</b>	<b>71,2</b>	<b>120,6</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirkik hayvonlar	21 674,5	19 995,2	72,5	92,3	24,9	19,0
Ichimliklar va tamaki	259,0	1 557,6	-	6,0 m.	0,3	1,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 159,9	1 357,3	64,0	117,0	1,3	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 709,2	3 495,7	4,7 m.	2,0 m.	2,00	3,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	370,0	161,9	5,4 m.	43,8	0,4	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 851,8	4 619,0	68,4	162,0	3,3	4,3
Sanoat tovarlari	16 510,2	4 803,1	34,0	29,1	18,9	4,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	40 490,7	65 986,1	117,2	163,0	46,4	62,7
Turli xil tayyor buyumlar	1 629,6	2 688,9	56,1	165,0	1,9	2,6
Xizmatlar	516,0	484,3	2,7 m.	93,9	0,6	0,5



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR  
IMPORTI TARKIBI**  
(2024-yil yanvar-sentabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollarri	2023-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	9 679,7	78,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 047,7	63,5
Tirk hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4 006,3	6,4 m.
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	511,0	162,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	323,0	-
Shakar, shakardan mahsulotlari va asari	258,6	145,4
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	129,1	76,4
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	36,8	47,2
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2,5	-
Balik	0,4	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	894,5	166,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	376,1	113,5
Probka va yog'och taxtalar	68,3	26,0
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	15,9	134,7
Qog'oz massasi	2,5	-
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3 264,8	191,0
Ko'mir, koks va briketlar	230,9	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2 811,0	162,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	585,8	144,9
Noorganik kimyoviy moddalar	394,5	166,1
Organik kimyoviy moddalar	323,8	266,2
Birlamchi shaklda bo'lмаган plastmassalar	202,9	200,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	122,9	173,7
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	75,8	102,4
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalar; tualetga	56,9	63,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	45,5	195,3

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	897,5	15,0 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	837,3	94,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarini blokli binolar, armatura va mahkamlash	575,0	127,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	210,4	105,7 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	102,1	47,7
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	58,1	3,9 m.
Poyabzal	7,1	7,5 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlataladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	1,3	261,6 m.
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	3 115,2	58,8
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	723,1	10,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	403,3	58,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	321,1	11,3
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	154,3	59,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	41,5	31,6
Rangli metallar	26,9	143,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	17,7	21,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	39 035,6	196,1
Sanoat uchun maxsus bo'lмаган mashinalar va ularning detallari	14 883,6	2,1 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3 949,4	3,0 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 684,0	68,4
Metallni qayta ishlash mashinalari	2 100,5	4,5 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	1 869,5	23,9
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1 138,6	69,5 m.
Boshqa transport vositalari	198,2	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	126,8	21,5 m.



2024-yil yanvar-sentabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 16,6 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga kamaydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz 40 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, XXR, Germaniya, Qozog'iston, Pokiston, Hindiston va Turkmaniston) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-sentabr, % da)






**SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI  
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Turkiy	7 884,0	29 911,4	161,4	3,8 m.	4	1
XXR	25 645,9	20 573,0	92,9	80,2	1	2
Germaniya	1 748,3	11 770,9	178,4	6,7 m.	9	3
Qozog'iston	12 127,9	9 897,1	134,2	81,6	3	4
Pokiston	12 998,9	6 231,5	63,5	47,9	2	5
Hindiston	1 947,0	3 413,2	66,5	175,3	8	6
Turkmaniston	944,8	3 210,0	132,3	3,4 m.	12	7
Eron	1 043,8	3 166,9	97,6	3,0 m.	11	8
Rossiya Federatsiyasi	4 525,6	3 072,5	11,8	67,9	7	9
Afg'oniston	706,2	2 540,0	144,5	3,6 m.	15	10
Koreya Respublikasi	849,7	2 014,4	75,7	2,4 m.	13	11
Avstriya	0,0	1 970,0	-	-	-	12
Ekvador	255,0	1 391,4	37,4	5,5 m.	20	13
Tojikiston	6 033,4	750,9	86,8	12,4	5	14
Estoniya	223,1	658,8	93,4	3,0 m.	21	15
Qirg'iz Respublikasi	84,7	490,7	8,0	5,8 m.	25	16
Shveysariya	123,3	466,4	6,3 m.	3,8 m.	23	17
Polsha	368,8	447,9	4,3 m.	121,4	17	18
Chexiya	187,4	400,1	70,1	2,1 m.	22	19
Xianggan (Gonkong) (Britaniya)	360,0	314,0	4,0 m.	87,2	18	20



**SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR  
KESIMIDA IMPORTI**  
(2024-yil yanvar-sentabr, ming AQSH doll.)\*




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Angor 21,0 % bilan 22 042,5 ming AQSH dollarini, eng quyi, Qiziriq 0,3 % bilan 297,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 4 803,1 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 70,9 % kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ga yetdi.



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (3 115,2 ming AQSH dollari), noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (723,1 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (403,3 ming AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (321,1 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (154,3 ming AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar (41,5 ming AQSH dollari), rangli metallar (26,9 ming AQSH dollari), va probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (17,7 ming AQSH dollari) tashkil topgan.

## IX. KICHIK TADBIRKORLIK

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 4 057 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 52,9 foizga ko‘p demakdir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (36,6 %), sanoatda (23,6 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (13,7 %), yashash va ovqatlanishda (9,0 %), qurilishda (4,3 %) va tashish va saqlashda (1,7 %) tashkil etgan.

### **Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari**

	O‘lchov birligi	2023-y.	2024-y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	21197	21220	+23
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2653	4057	+1404
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YAHM	%	77,8	78,7	+0,9
Sanoat	%	48,1	58,7	+10,6
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	%	95,0	96,0	+1,0
Investitsiya	%	63,0	46,3	-16,7
Qurilish	%	91,5	90,6	-0,9
Chakana savdo	%	96,7	96,5	-0,2
Xizmatlar	%	73,0	74,7	+1,7
Yuk tashish	%	92,6	91,0	-1,6
Yuk aylanmasi	%	95,0	96,4	+1,4
Yo‘lovchi tashish	%	97,3	97,5	+0,2
Yo‘lovchi aylanmasi	%	98,2	98,2	0,0
Eksport	%	74,7	86,9	+12,2
Import	%	91,5	89,6	+1,9


**Viloyat bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona  
va mikrofirmalar, birlikda**

	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	farqi (+;-)
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2653</b>	<b>4057</b>	<b>+1404</b>
shaharlar:			
Termiz sh.	554	731	+177
tumanlar:			
Angor	126	216	+90
Bandixon	72	93	+21
Boysun	91	125	+34
Denov	267	457	+190
Jarqo'rg'on	205	427	+222
Qumqo'rg'on	120	224	+104
Qiziriq	173	241	+68
Muzrabot	106	149	+43
Oltinsoy	161	228	+67
Sariosiyo	130	184	+54
Termiz	113	297	+184
Uzun	109	127	+18
Sherobod	259	231	-28
Sho'rchi	167	327	+160

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar tumanlar bo'yicha eng ko'p Termiz shahri - 731 ta, Denov tumani - 457 ta, Jarqo'rg'on tumani - 427 ta, Sho'rchi tumani - 327 ta, Termiz tumani - 297 ta, Qiziriq tumani - 241 ta, Sherobod tumani - 231 ta va Oltinsoy tumani - 228 tani tashkil etgan.

Eng past ko'rsatkich Muzrabot tumani - 149 ta, Uzun tumani - 127 ta, Boysun tumani - 125 ta va Bandixon tumani - 93 tani tashkil etgan.

**2024-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlari bo'yicha ulushi, % da**



2024-yilning yanvar-sentabr holatiga tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Termiz shahri - 18,0 %, Denov tumani - 11,3 %, Jarqo‘rg‘on tumani - 10,6 %, Sho‘rchi tumani - 8,1 %, Termiz tumani - 7,3 %, Qiziriq tumani - 5,9 % va Sherobod tumani- 5,7 % ni tashkil qildi.

Eng past ko‘rsatkich Sariosiyo tumani - 4,5 %, Muzrabot tumani - 3,7 %, Uzun tumani - 3,1 %, Boysun tumani - 3,1 % va Bandixon tumani - 2,3 % ni tashkil etgan.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2023-y. yanvar-sentabr	2024-y. yanvar-sentabr	farq. (+;-)
<b>Jami</b>	<b>2 653</b>	<b>4 057</b>	<b>+1404</b>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	285	555	+270
Sanoat	412	958	+546
Qurilish	203	174	-29
Savdo	1 155	1 486	+331
Tashish va saqlash	83	70	-13
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	194	363	+169
Axborot va aloqa	71	100	+29
Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	41	65	+24
Boshqa faoliyat turlari	209	286	-77

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko‘p **savdoda** - 1486 ta;

*shuningdek:*


**Sanoatda** - 958 ta;

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** - 555 ta;

**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar** - 363 ta;


**Boshqa faoliyat turlari** - 286 tani tashkil etdi.

**2024-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida 19,9 birlik, Termiz shahrida 17,7 birlik, Boysun tumanida 10,5 birlik, Sherobod tumanida 10,0 birlik, Bandixon tumanida 9,9 birlik, Angor tumanida 9,8 birlik, Oltinsoy tumanida 9,2 birlikni tashkil etgan. Qumqo'rg'on tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,5 birlikka to'g'ri keldi.


**2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***




\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 9,5 birlikni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 9,8 birlikni tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 0,3 birlikka kamaydi.


**Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik  
subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko‘ra\***



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi - 58,7 %, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi - 96,0 %, qurilishda - 90,6 %, investitsiyada - 46,3 %, savdoda - 96,5 %, xizmatlar sohasida - 74,7 %, eksportda - 86,9 % va importda - 89,6 % ni tashkil etdi.




## Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushini ko‘payish dinamikasi, yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, % da



2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 78,7 % ni tashkil qildi. (2023-yilning yanvar-sentabrida 77,8 %). YAHMdagi ulushini o‘tgan yilga nisbatan ko‘payishi yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.

### Kichik tadbirkorlikning ulushi



**2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida  
iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>58,7</b>	<b>90,6</b>	<b>74,7</b>	<b>46,3</b>
shaharlar:				
Termiz sh.	60,4	97,3	48,3	40,8
tumanlar:				
Angor	75,1	94,1	77,0	72,1
Bandixon	100,0	84,4	84,3	94,8
Boysun	93,0	96,4	80,9	8,7
Denov	51,6	95,7	61,9	85,0
Jarqo‘rg‘on	24,1	89,6	74,9	71,0
Qumqo‘rg‘on	37,7	91,5	62,8	94,8
Qiziriq	30,4	92,3	82,9	84,8
Muzrabot	98,2	83,7	80,6	94,2
Oltinsoy	97,0	95,5	79,8	94,0
Sariosiyo	28,1	57,7	67,7	29,6
Termiz	64,3	95,4	65,4	50,8
Uzun	60,0	72,2	75,4	85,7
Sherobod	72,4	90,3	74,6	74,7
Sho‘rchi	69,6	98,0	73,1	92,8


Hududlar bo‘yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Bandixon (100,0 %), Muzrabot (98,2 %), Oltinsoy (97,0 %), Boysun (93,0 %) va Angor (75,1 %) tumanlari tashkil etadi.

**Qurilishda** Sho‘rchi (98,0 %), Termiz shahar (97,3 %), Boysun (96,4 %), Denov (95,7 %), Oltinsoy (95,5 %), Termiz (95,4 %), Angor (94,1 %), Qiziriq (92,3 %) va Qumqo‘rg‘on (91,5 %) tumanlari tashkil etadi.

**Xizmatlar sohasida** Bandixon (84,3 %), Qiziriq (82,9 %), Boysun (80,9 %), Muzrabot (80,6 %), Oltinsoy (79,8), Oltinsoy (79,8), Angor (77,0) va Uzun (75,4 %) tumanlari tashkil etadi.


**Investitsiyada** Qumqo‘rg‘on (94,8 %), Bandixon (94,8 %), Muzrabot (94,2 %), Oltinsoy (94,0 %), Sho‘rchi (92,8 %), Uzun (85,7 %) va Denov (85,0 %) tumanlari tashkil etadi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdag'i ulushi, %da**



2024-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 100,0 %, Sariosiyo tumanida - 100,0 %, Qumqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Jarqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Angor tumanida - 99,9 % va Qiziriq tumanida - 91,2 % ni eng past ko'rsatkich Uzun tumanida - 51,6 % ni tashkil etdi.


**2024-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (764,4 mlrd. so‘m), Sherobod (572,6 mlrd. so‘m), Sho‘rchi (513,9 mlrd. so‘m), Bandixon (423,7 mlrd. so‘m), Denov (422,7 mlrd. so‘m), Muzrabot (367,2 mlrd. so‘m) va Angor (301,1 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qiziriq tumanida (48,0 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.




### **2024-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumanida (3 166,0 mlrd. so‘m), Termiz shahri (2 763,5 mlrd. so‘m), Sho‘rchi (1 625,3 mlrd. so‘m), Sherobod (926,4 mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (897,3 mlrd. so‘m) va Angor (771,3 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




### **2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati**



